

ERKAKLAR KO'YLAGINI ISHLAB CHIQRISHDA QO'LLANILADIGAN MATERIALLAR VA ULARNING TAHLILI

J.S.Sidikjanov

*Dizayn kafedrası assistenti, PhD
Namangan davlat texnika universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada erkaklar sorochkasi ishlab chiqarish uchun hozirgi kunda tikuvchilik korxonalari tomonidan keng foylanilayotgan matolarning turlari, matoni tashkil qilgan tolalar xususiyati, ularning to'qilish usullari va naqshlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ko'ylak, soročka, paxta, mato, to'qima, zig'ir, o'rilish.

Kirish. Bugungi kunda erkaklarning garderobidagi eng muhim kiyimlardan biri bu soročka uslubidagi ko'ylagi hisoblanadi. Odatda ushbu ko'ylaklar pidjak, palto yoki kurtkalarning ostidan kiyiladigan erkaklar kostyumini to'ldiruvchi elementi hisoblanadi, lekin bahor va yoz kabi mavsumlarda erkaklar kiyiming asosiy assortimenti hisoblanadi. Vazifasiga ko'ra ko'ylaklar forma, kundalik yoki tantanali kiyimlarga, shuningdek bichimi, silueti, shakliga ko'ra bir necha xil turlarga bo'linadi, va yana mavsumga qarab bahor-kuz, yozgi va qishgi turlarga ham ajratish mumkin.

Erkaklar ko'ylagi turli xomashyolar jumladan, paxta, zig'ir, ipak, jun, sun'iy va aralash tolalardan iborat materiallardan tayyorlanadi [1]. Materiallar tola tarkibi, to'qilishi va naqshi bo'yicha farqlanadi. Ular odatda, sidirg'a rangli, gul bosilgan, yo'l-yo'l yoki katakli bo'ladi.

Har bir xom ashyo turli xususiyatlarga ega. Masalan, paxta tolasi erkaklar ko'ylagini ishlab chiqarishda eng ko'p ishlatiladigan xomashyo hisoblanadi. Paxta tolasining afzalligi past issiqlik o'tkazuvchanligi, turli bo'yoqlarda yaxshi bo'yalishi, ishqor va boshqa kimyoviy moddalar ta'sirida parchalanmasligi, ishqalanishga chidamliligi kabilardir. Paxtaning gigroskopikligi ancha yuqori. Ko'pincha ko'ylaklik matolar uzun shtapelli yoki qayta taralgan uzun shtapelli (ELS) toladan qilinadi. Paxta ipidan tayyorlangan mahsulotlar juda qulay va yumshoq. Paxta ipi ba'zan boshqa iplar bilan birgalikda ishlatiladi [2]. 100% paxta ipidan to'qilgan matolar yuqori kirishuvchanlikka ega va paxtadan tayyorlangan mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarishda matoning xususiyatlariga alohida e'tibor berish kerak.

Zig'ir matolar - zig'ir o'simligidan olingan juda nozik tolalardan tayyorlangan gazlama. Xom zig'irni matoga aylantirish paxtani qayta ishlashga qaraganda ko'proq vaqt va kuch sarflaydi, bu esa xarajatlarni oshiradi. Zig'ir iplari odatda paxtaga qaraganda yengilroq. Zig'ir matodan tayyorlangan ko'ylaklar juda yengil, havo o'tkazishi yuqori va qattiqligi paxtadan kamroq. Zig'ir matolari paxtadan ko'ra tezroq

bug'lanadi va juda namlik yuqori mamlakatlarda erkaklar uchun qulaylik yaratadi yoki ko'p terlashga moyil bo'lgan erkaklar uchun ham tavsiya qilinadi.

Ipak ko'ylaklar g'ayrioddiy, hashamatli va qimmatbaho kiyim hisoblanadi. Ipakning qimmatligi undan tayyorlangan gazlamalarning chiroyli ko'rinishga ega bo'lishi, yuqori mustahkamligi, yaxshi bo'yalishi, egiluvchanligi, namlikni oson singdirishi bilan bog'liq. Yigirilgan ipak iplari paxta iplari bilan bir qatorda gazlama va buyumlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Paxta ipidan tabiiy ipak tolalari qo'shilgan holda to'qilgan gazlamalar, xususan, havo o'tkazuvchanligi, gigroskopiklik va eng muhimi, gigiyenik xususiyatlarni yaxshilaydi [3]. Shuning uchun paxta-ipakli mahsulotlarni yozgi mavsumda shuningdek, issiq iqlim sharoitlarida kiyishga tavsiya etiladi.

Jundan ishlab chiqarilgan ko'ylaklar shaklni yaxshi saqlaydi, hamda issiqlik o'tkazuvchanligi kam. Jun tolalari paxta tolalariga qaraganda uzunroq, mustahkamligi past, lekin elastikligi yuqori bo'ladi. Jun namni yaxshi shimadi va uni uzoq vaqt saqlaydi. Biroq, bug', harorat va bosim ta'sirida jun tolalari shaklini o'zgartirish mumkin. Bu xususiyatdan kelib chiqqan holda, tikuvchilik texnologiyasida jun mato va kiyimlarga nam-issiqlik bilan ishlov berish usuli keng qo'llaniladi [3, 4].

Sun'iy tolalar asosan paxta matolari bilan aralash holda qo'llanadi. Paxta tolali ko'ylakning mustahkamligi va eskirishga chidamliligini oshirish uchun bir necha xil iplar, neylon, polyester yoki boshqa sintetik tolalar qo'shiladi.

Sun'iy va sintetik tolali ko'ylaklik matolar yuqori sifatga ega bo'lmaydi va sifatli ko'ylak uchun tavsiya etilmaydi. Sintetik tolalardan iborat matolar faqat mustahkamlik, eskirishga chidamlilik va arzonroq narx [4] kabi bir nechta afzalliklarga ega lekin gigiyenik xossalari o'ta past bo'ladi.


Matolarning o'rilishi deb, tanda va arqoq iplarining ma'lum tartibda o'zaro bog'lanishiga aytiladi. Tanda va arqoq iplarining o'rilishini ko'rsatuvchi shaklga o'rilish naqshi deyiladi [5].

O'rilish jarayonida hosil bo'luvchi naqshning takrorlanishi rapport (R) deb ataladi. Tanda ipi matoning sirtiga chiqib arqoq ipining ustini qoplashi tanda qoplanishi deyiladi. Arqoq ipi matoning sirtiga chiqib tanda ipining ustini qoplashi arqoq qoplanishi deyiladi.

Matolar o'rilishi bo'yicha quyidagicha sinflarga bo'linadi [6]:

1. Oddiy yoki bosh o'rilishlar;
2. Mayda gulli o'rilishlar;
3. Murakkab o'rilishlar;
4. Yirik gulli (jakkard) o'rilishlar.

Oddiy o'rilishlar (1-rasm) sinfiga polotno, sarja va satin (atlas) o'rilishlari kiradi.







1-rasm. Oddiy o'rilishlar




Barcha oddiy o'rilishlarga xos umumiy xususiyatlar shundaki, tanda bo'yicha rapport arqoq bo'yicha rapportga teng bo'ladi, bitta rapport ichida har bir tanda ipi har bir arqoq ipi bilan faqat bir martagina o'rilishadi.

1-jadval

Ko'p ishlatiladigan ko'ylak matolarining turlari va tavsifi

Mato turi	O'rilishi	Mato ko'rinishi	Qisqa tavsifi
Poplin			Poplin oddiy, tanda va arqoq iplarini navbatma-navbat ustiga chiqarib o'rish orqali to'qilgan. Yumshoq, havo o'tkazuvchan, pishiq, juda silliq va chidamli, lekin burishishga eng moyil
Oksford (Rogochka)			Oksford - bu savat usulida to'qish bo'lib, bir nechta arqoq iplari teng miqdordagi tanda iplar ustida kesishadi. Ko'pincha, rangli arqoq oq rangli tanda ip bilan kesishadi, natijada ikki rangli naqsh paydo bo'ladi. Bir oz dag'alroq, lekin bardoshli, qalinroq va issiqroq
Pinpoint			Pinpoint - Oksford mato bilan bir xil o'rilishga ega, farq ikki-bir-ikki to'quv tuzilishi. Bitta arqoq ipi ikkita tanda ipni kesib o'tib, to'g'nog'ich uchi ko'rinishini hosil qiladi. Shaffof emas, yetarlicha chidamli, lekin biroz og'irroq va qalinroq

Sarja		Sarja - diagonal teksturaga ega bo'lib, o'ziga xos diagonal naqsh yaratish uchun har bir tanda va arqoq iplarini ikkita vertikal ipning ustiga va ostiga to'qish orqali qilingan. Poplindan yumshoqroq va qalinroq, shuningdek, g'ijimlanishga chidamli va dazmollash oson, juda yaxshi burma hosil qiladi
Shambre		Shambre - ishchi kiyimi uchun poplin yoki sukno shaklidagi yanada qulayroq yoki ish kiyimi jozibadorligi uchun og'irroq ip bilan qilingan polotno to'qilgan mato. Shambre gazlamasi tandada rangli ip, arqog'ida esa oq ip. Bu bir xil rang o'zgarishiga ega bo'lgan ko'ylak vazniga ajoyib alternativdir
Denim		Denimning konstruksiyasi sarja o'rilishidir. Ikki rangli ko'rinishni yaratish uchun rangli ip oq ip bilan kesishadi. Rangli ip matoning yuziga o'tadi, oq esa orqa tomonda qoladi
End-on-End		End-on-end ko'ylak matolarining juda mashhur turidir. End-on-uch - bu poplin to'quv bo'lib, unda tanda ipi bir rangda va arqoq ip boshqa rangda bo'ladi
Royal oksford		Royal Oksford klassik Oksfordga juda o'xshash. To'quvning biroz o'zgarishi bilan farq qiladi. Ikkala to'quv o'rtasida asosiy tuzilish o'xshashligi mavjud bo'lsa-da, royal Oksford ikki-uch-ikki tuzilmali o'rilishda qurilgan.

Siniq sarja			Siniq sarja - bu to'qilganda "V shaklidagi" ko'rinishni aks ettiradigan mato. Ushbu matolar silliq teksturali sirtga ega, shuningdek yaxshi buklama hosil qiladi va dazmollash oson
Satin			Satin to'rt yoki undan ortiq arqoq iplari bir tanda ipdan o'tadi yoki aksincha: to'rt yoki undan ortiq tanda iplari arqoq ipdan o'tadi. To'qimachilikda tanda ip yoki iplar to'quv dastgohida qo'zg'almas holda ushlab turiladi, arqoq ip yoki iplar esa ustki va ostidan to'qiladi. Satin o'rilishi yorqin, ammo chidamli emas
Jakkard Naqsh turiga ko'ra			Jakkard to'quv naqshli matolarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan maxsus dastgoh yordamida yaratilgan. Turli to'quvlar aralashmasidan foydalanib, naqshlarning imkoniyatlari cheksizdir. Jakkardlar yanada murakkab naqshlarni yaratish uchun bitta rang yoki ranglar aralashmasidan tayyorlanishi mumkin. Ko'pincha jakkardning orqa tomoni naqshning oyna tasviridir

Yuqoridagi 1-jadvalda erkaklar an'anaviy ko'ylaklari uchun qo'llaniladigan materiallarning tasnifi keltirilgan. Mazkur 1-jadvalda ko'ylaklik matolar o'rilishlarining aniq ko'rinishi berilgan bo'lib, turli o'rilish usullari orqali turlicha xususiyatli matolarni olish imkonini beradi.

Gazlamalardagi naqshlar ikki xil manba orqali hosil qilinadi. Matoning bo'yalishi yoki bosma naqshidagi turli xil ranglarning kontrasti yoki uning iplarini turli usulda o'rilishi natijasida hosil qilingan tekstura [7]. Ranglar bilan yaratilgan naqshlar ko'proq diqqatni tortadi va shuningdek, tekis va bo'rtmalarsiz bo'ladi.

Ko'pincha mato naqshlari teksturali, yo'l-yo'l va katakli yoki bosma naqshli bo'ladi. Tekstura – turli o'rilish usullari orqali mato sirtida yaratilgan masalan, sarja kabi eng oddiy naqsh bo'lsa, yo'l-yo'l va katak gazlamalar ikki yoki undan ortiq rangli iplardan tuzilgan bo'ladi.

Ko'ylak uchun matolar har xil turlarga bo'linadi va tolaning tarkibi, o'rilishi va naqshlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bu xususiyatlar matoning fizik-mexanik xossalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Mato ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan iplar mahsulot sifatini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Mahsulot sifati 70% yigirilgan ip sifati bilan belgilanadi. Iplarning tarkibi tabiiy, sun'iy yoki sintetik bo'lishi mumkin. Tabiiy iplar ekologik toza ya'ni, o'simlik va hayvon jini kabi tolalardan olinadi [8]. Yigirilgan tabiiy iplar sifatli bo'lib, gigiyenik xususiyati yuqori va tannarxi nisbatan baland hisoblanadi.

O'rilish usuli matoning havo o'tkazuvchanligi, og'irligi, chidamliligi, bikirligi va kirishuvchanligi kabi xususiyatlariga ta'sir qiladi. Masalan, polotno o'rilsihidagi matolar sarjaga nisbatan mustahkamligi yuqori lekin havo o'tkazuvchanligi pastroq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Antonio Centeno. The Style Pyramid | Fit, Fabric, and Function. Internet source: <https://www.realmenrealstyle.com/style-pyramid/>
2. Chu Kwan Ki. Development of business shirt for man with apple body shape: the establishment of new design process model and evaluation of ergonomic ease. PhD Dissertation of The Hong Kong Polytechnic University, 2018 pp 187-200
3. J.S.Sidikjanov. Study fabrics of men's shirts. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 2 ISSUE 2, 2023, p. 245
4. Shirt Fabric Weaves Guide. Internet source: <https://www.batchmens.com/pages/dress-shirt-fundamentals-shirt-fabrics-and-weaves-guide-18>
5. Textiles and Fashion. Materials, Design and Technology. Edited by Rose Sinclair (2014). Woodhead Publishing Series in Textiles: Number 126, Cambridge, UK: Woodhead Publishing Limited. 4-5. 19
6. U.M.Matmusayev, M.Q.Qulmatov, T.A.Ochilov, Material Science. Textbook //Materialshunoslik. O'quv qo'llanma// «ILM ZIYO» Tashkent., 2013 20
7. Б.А. Бузов, Н.Д. Алименкова. Материаловедение в производстве изделий легкой промышленности (швейное производство). Учебник - Москва. «Академия» 2010. 21
8. J.S.Sidikjanov. Paxta matolarining kirishish parametrlari asosida erkaklar ko'ylagini loyihalash usulini takomillashtirish // PhD dissertatsiyasi, NamTSI, Namangan, 2024. 18-20 b.